

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVRDA YOSHLAR ONGIGA TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Azamatov Shohruhbek Sherzod o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti

Sport fakulteti 1-bosqich talabasi

Murojaat uchun Tel: 97 466 55 05

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizda olib borilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, internet, axborot texnologiyalarining yoshlar ongiga ta’siri, ta’lim tarbiya olishda jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolar va yechimlar, axborotlashgan jamiyatdagi yoshlarning o‘rni va moslashuvi masalalari yoritib berilgan. Virtual dunyo rivojlangan davlatlarda bizdan chorak asr ilgari shakllanib, o‘zining salbiy jihatlarini ham namoyon qilib ulgurdi. Yosh avlodning bunday raqamli transformatsiya sharoitida o‘qish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Kibermakonning salbiy ta’siridan o‘sib kelayotgan yosh avlod huquqlarini himoya qilish masalalari ko‘tarildi*

Kalit so‘zlar: *Internet madaniyati, yoshlar raqamli savodxonligi kiberbulling, axborot xavfsizligi, internet qaramligi, media savodxonlik, virtual muloqot, huquqiy asoslar.*

Abstract: *This article covers the digital transformation processes underway in our country, the impact of the Internet and information technologies on the minds of young people, the problems and solutions arising in society in education, the role and adaptation of young people in an information society. The virtual world was formed in developed countries a quarter of a century before us and has already shown its negative aspects. It has radically changed the interests of the younger generation in reading and learning in the conditions of such digital transformation. The issues of protecting the rights of the younger generation growing up from the negative impact of cyberspace are raised.*

Keywords: *Internet culture, youth digital literacy, cyberbullying, information security, internet addiction, media literacy, virtual communication, legal frameworks.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются процессы цифровой трансформации, происходящие в нашей стране, влияние интернета и информационных технологий на сознание молодежи, возникающие в обществе проблемы и их решения в сфере образования и воспитания, а также вопросы роли и адаптации молодежи в информационном обществе. Виртуальный мир в развитых странах сформировался на четверть века раньше нас и уже проявил свои негативные стороны. В таких условиях цифровой трансформации кардинально изменился интерес молодого поколения к учебе и познанию. Возникают вопросы защиты прав подрастающего поколения от негативного влияния киберпространства.*

Ключевые слова: Интернет-культура, цифровая грамотность молодежи, кибербуллинг, информационная безопасность, интернет-зависимость, медиаграмотность, виртуальное общение, правовая база.

Kirish

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, yoshlar ongiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va mobil texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Yoshlar hayotida raqamli olam nafaqat axborot manbai, balki ijtimoiylashuv, o'zini namoyon etish va dunyoqarashni shakllantirish vositasiga aylandi. Zamonaviy yoshlar “raqamli avlod” sifatida tavsiflanib, ularning ongi avvalgi avlodlarga nisbatan mutlaqo yangi sharoitda shakllanmoqda. Bu holat, bir tomondan, bilim olish va muloqot imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ong manipulyatsiyasi, soxta qadriyatlar va axborot xurujlari xavfini kuchaytirmoqda. Ma'lumki, raqamli texnologiyalar orqali uzatilayotgan axborotlar insonning tashqi, ichki taassurotlari va hissiyotlari ongi tomonidan anglanadi. Axborotlar tufayli vaqtining qadsizlanishida inson fikrlari sababchi bo'ladi. O'yxayollarini yaxshi g'oyalarga sarflashi insonni har qanday ma'lumotga og'ishmasligini kafolatlaydi. Har kim fikrlarini boshqarish asnosida internet va vaqtdan o'rinli foydalana oladi.

Asosiy qism

Joriy yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda aholi soni o'ttiz yetti yarim milliondan ortdi. 14-30 yosh oralig'idagi yoshlar esa qariyb o'n millionga yaqinlashgani quvonarli hol. Ya'ni jamiyatdagi aholining katta qismini yoshlar tashkil etmoqda. Bu demografik ko'rsatkichlar mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivojlanishi uchun kuchli asosni yaratmoqda. Datareportal.com ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston aholisining qariyb 70 foiz qismi internet foydalanuvchisi hisoblanadi. . Dunyo mamlakatlari qatorida bugun O'zbekistonda ham internet tarmog'idan foydalanish yuqori sur'atlar bilan oshib bormoqda. 2025-yilning yanvar – avgust oylarida O'zbekiston aholisi orasida internetdan foydalanuvchilar ulushi 94,2 foizga yetdi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 76,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 83,9 foizga, 2023-yilda 89 foizga, 2024-yilda esa 93,3 foizga yetgan edi. Internet tarmog'ining mavjudligi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoning globallashtirishini namoyon etish bilan birga yoshlarning tafakkur va idrok jarayonlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aholining 18 foizdan ziyodi turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Internetning asosiy afzalligi uning axborot tezligi, serqirra funksional imkoniyatlari va istalgan mavzudagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida yetkazib berish qobiliyatidir. Yoshlar uchun internet ilmiy izlanishlar olib borish, darsga tayyorgarlik ko'rish, xorijiy tillarni o'rganish, onlayn kurslarda qatnashish, turli mahoratlarni rivojlantirish uchun ulkan platforma vazifasini bajaradi. Jahon bilan hamnafas bo'lish, global innovatsiyalarni o'rganish, o'z qiziqishlariga mos virtual

hamjamiyatlar topish imkoniyati ham internetning yoshlar hayotidagi muhim ijobiy jihatlaridir. Biroq internetning bunday keng qo'llanilishi bilan birga bir qator muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Tarmoqda nazoratsiz tarqalayotgan zararli axborotlar, yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ekstremistik g'oyalar, pornografiya, giyohvandlik va zo'ravonlik targ'ibotlari, suitsidga undovchi guruhlar, yolg'on axborotlarning tarqalishi kabi holatlar jiddiy xavf tug'dirmoqda. Eng achinarlisi, yoshlarning aksariyati axborotni tanqidiy tahlil qilmaydi, ko'rganini mutlaq haqiqat sifatida qabul qiladi. Bu esa internet orqali har qanday salbiy ta'sirning yosh ongda tez singishiga, ma'naviy mas'uliyatning susayishiga olib keladi. Shu bilan birga, internet madaniyati masalasi huquqiy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Internetdan noto'g'ri foydalanish kiberjinoyatlar, shaxsga qarshi virtual tajovuzlar, shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi, noqonuniy kontent iste'moli, yoshlarni ekstremistik guruhlariga jalb etish kabi holatlar bilan bog'liq bo'lgani sababli mazkur masala davlat siyosati darajasida ham yondashuvni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun, “Kiberxavfsizlik konsepsiyasi”, “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonun va boshqa normativ hujjatlar aynan yoshlarni raqamli makonda himoya qilishga qaratilgan bo'lsada, amaliyotda ularni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish zarurati mavjud. O'zbekiston sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha bog'lanish psixologik va ijtimoiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Internet qaramligi natijasida yoshlar diqqatning pasayishi, hissiy beqarorlik, real hayotdagi ijtimoiy muloqotning sustlashuvi va o'zini ijtimoiy hayotda noqulay his qilish kabi holatlarni boshdan kechirmoqda. A.Raxmonov buni yoshlar ijtimoiylashuv jarayonidagi muhim muammo sifatida baholaydi. Tarmoq avlodi – bu vizual ob'yektlarni idrok etish va video o'yinlarni yo'naltirish, texnologik bilimlar hajmini, ko'nikmalarini va ulardan foydalanish tezligini oshirishda o'tkir ongga ega bo'lgan haqiqiy global ko'p millatli va eng bag'rikeng avlod. Bularning barchasi «mahalliy»larga kerakli ma'lumotlarni tezda topish, ularni saralash, baholash va bilimga aylantirish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tafovutlar aksariyat o'qituvchilar taxmin qilganidan ancha ko'p va chuqurroqdir. Shu munosabat bilan, eng katta muammo «muhojir» o'qituvchilarning o'zlari, ularning raqamli davrdan oldingi eskirgan tili bo'lib qoldi, ular mahalliy aholiga o'zlarining maxsus tilini e'tiborsiz qoldirib o'rgatadilar. Bu borada ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlarning maqsadi – yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, uning ijobiy va salbiy ta'sirlarini tahlil qilish, internet madaniyatini shakllantirishning huquqiy asoslarini o'rganish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotlarning ilmiy yangiligi shundaki, unda internetning yoshlar hayotiga ko'rsatadigan ta'siri kompleks holatda – ijtimoiy, psixologik, madaniy va huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Shuningdek, internet madaniyatini shakllantirishning zamonaviy mexanizmlari, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish yo'llari, kiberhujumning oldini olish bo'yicha amaliy yondashuvlar, internet xavfsizligining huquqiy asoslari alohida ilmiy yoritildi. Shu tariqa, “Yoshlarning

internetdan foydalanish madaniyati: ijobiy imkoniyatlar va salbiy oqibatlar tahlilining huquqiy asoslari” mavzusi bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, har tomonlama chuqur tahlilni talab etadi.

Xulosa

Yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatiga oid o‘tkazilgan tahliliy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli muhit bugungi avlod hayot tarzining ajralmas qismiga aylangan. Internetning ta’limiy, ma’rifiy, axborot almashish va kommunikatsiyadagi ijobiy imkoniyatlari beqiyosdir. Uning yordamida yoshlar ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo‘lishi, xorijiy ta’lim kurslarida qatnashishi, ijodiy loyihalarini rivojlantirishi, o‘zi uchun qulay bo‘lgan virtual muloqot makonini yaratishi mumkin. Shu bilan birga, internetning haddan tashqari ta’siri va nazoratsiz qo‘llanilishi jiddiy psixologik, ma’naviy hamda axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Shuningdek, oila, maktab va jamiyat tomonidan internetdan foydalanish bo‘yicha yetarli tushuntirishlar bermaslik, ota-onalarning raqamli savodxonligi pastligi, o‘quvchi-yoshlarning axborot tanlash madaniyati shakllanmaganligi kabi omillar salbiy oqibatlarning yanada chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Internet madaniyatini shakllantirish, avvalo, yoshlarning axborotni tanqidiy baholash qobiliyatiga, zararli ma’lumotlarni ajratib olish ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon uzluksiz pedagogik va psixologik yondashuvni talab etadi. Jamiyatda sog‘lom axborot muhitini yuzaga keltirish uchun ommaviy axborot vositalari, bloggerlar va kontent yaratuvchilarning faol ishtiroki talab etiladi. Yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan, aksincha ularni o‘qishga, ijod qilishga, fikrlashga undaydigan ijobiy kontentlar sonini oshirish zarur. Ayniqsa, milliy mentalitetga zid bo‘lgan g‘oyalar va tartibsiz hayot tarzini targ‘ib qiluvchi materiallarning oldini olish maqsadida targ‘ibot ishlari kuchaytirilishi lozim. Agar ushbu yondashuv amaliyotga izchil tatbiq qilinsa, yoshlarning internetdan foydalanish madaniyati mustahkamlanadi, ularning g‘oyaviy-ma’naviy immuniteti kuchayadi va raqamli dunyoda o‘zini himoya qila oladigan yetuk shaxslar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Raqamli texnologiyalar davrida O‘zbekiston yoshlariga yaratilayotgan imkoniyatlar. Nigora ABDULLAEVA. Amerika texnologiyalar universiteti rektori maslahatchisi, Sardor TO‘XTAEV, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya univerisiteti talabasi. https://uza.uz/ru/posts/raqamli-texnologiyalar-davrida-ozbekiston-yoshlariga-yaratilayotgan-imkoniyatlar_730403

2. YOSHLARNING INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATI: IJOBIY IMKONIYATLAR VA SALBIY OQIBATLAR TAHLILINING HUQUQIY ASOSLARI. Murodov Quvonchbek Nodirovich, Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti “Xalqaro huquq fakulteti” 1-bosqich talabasi. file:///C:/Users/user/Downloads/ZDIFT+3208%20(4).pdf

3. IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНОГУМАНИТАРНЫХ НАУК ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES. BOSH MUHARRIR: Isanova Feruza Tulqinovna. TAHRIR HAY’ATI: 07.00.00- TARIX FANLARI: Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor; Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor. file:///C:/Users/user/Downloads/21.pdf
4. RAQAMLI JAMIYATDA YOSHLAR TARBIYASI MASALALARI VA IJTIMOY MUAMMOLAR Teshayeva Gulchehra Murodovna Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti. file:///C:/Users/user/Downloads/raqamli-jamiyatda-yoshlar-tarbiyasi-masalalari-va-ijtimoiy-muammolar%20(1).pdf .